E-ISSN: 2997-9439

American Journal of Education and Evaluation Studies

https://semantjournals.org/index.php/ AJEES

| Research Article

Check for updates

Oliy Ta'lim Muassasalari Talabalarini Ilmiy Va Ijtimoiy Loyihalar Olib Borishga O‘Rgatish Metodologik Yondashuvlari Va Amaliyoti

Holikova Laylo Fakhriddinovna

PhD., associate proffessor of Samarqand State Institution of Foreign Languages.

layloholikova390@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalarni olib borishga o‘rgatish jarayonini tahlil qiladi. Talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish va ularni amaliyotda qo‘llash orqali kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy loyihalar orqali talabalarni real muammolarni hal qilishga tayyorlashning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta'limda innovatsion metod sifatida o‘z ahamiyatini oshirmoqda.

Kalit so‘zlar: Ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy loyihalar, kasbiy kompetensiyalar, amaliyot, innovatsion ta'lim, talaba rivojlanishi, real muammolar, ijtimoiy faoliyat, ta'lim metodlari, universitet.

This is an open-access article under the CC-BY 4.0 license

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish bugungi ta'lim tizimining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat talabalarni nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamdir. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar orqali talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirib, real hayotdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradilar. Talabalarning ilmiy tadqiqotlar olib borishga qiziqishi va amaliy tajribaga ega bo‘lishi ularning akademik va kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar talabalarni mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal etish va innovatsion yechimlar topishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy loyihalar talabalar uchun ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish jarayonlarini metodologik jihatdan tahlil qiladi. Maqolada ilmiy tadqiqotlarning va ijtimoiy loyihalarning ta'lim jarayonida qanday amalga oshirilishi, talabalar uchun qanday samarali yondashuvlar mavjudligi, shuningdek, amaliyotdagi muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion metodlar va amaliyotlarning ahamiyati talqin etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish mavzusi bo‘yicha muhim ma'lumotlarni aniqlash va tahlil qilish talabalarni ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalar doirasida qanday qilib samarali o‘rgatishni tushunishga yordam beradi. Quyidagi asosiy ma'lumotlar ushbu mavzuni to‘liqroq yoritish uchun muhimdir:

Ilmiy tadqiqotlar tushunchasi bu - ilmiy tadqiqotlar nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va yangi bilimlar yaratish maqsadida olib boriladigan tizimli faoliyatdir. Tadqiqotlar soha bo‘yicha muammo aniqlash, eksperimentlar o‘tkazish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonlari tadqiqot masalasi aniqlanishini, masalani aniqlash, tadqiqot savollari va gipotezalar ishlab chiqilishini o‘z ichiga oladi. Mavzuga oid mavjud ilmiy ishlar va nazariyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot usullari va metodlarini tanlanadi (kvalitativ va kvantitativ usullar). Eksperimentlar va tahlil olib boorish jarayonida tajribalar o‘tkaziladi va natijalarni tahlil qilinadi. Keyingi o‘rinda natijalarni taqdim etiladi. Tadqiqot natijalarini maqola yoki hisobot shaklida bayon qilinadi.

Ilmiy tadqiqotning ta'limdagi roli shundan iboratki, ilmiy tadqiqotlar talabalarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi, innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi hamda akademik va professional rivojlanishga hissa qo‘shadi. Ijtimoiy loyihalar jamoatchilikning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida tashkil etiladigan faoliyatdir. Ular talabalarga ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish, jamoada ishlash va real muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Loyihalarni amaliyotga joriy etishda dastlab, loyihaning maqsadi va vazifalari aniq belgilab olinadi. Loyihaning reja va jadvalini ishlab chiqiladi. Loyihani amalga oshirish, resurslarni boshqarish, va nazorat qilish ijrochilar tomonidan nazoratga olinadi. Loyihaning samaradorligini baholash va natijalarini tahlil qilish asosida aniqlanadi.

Ijtimoiy loyihalarning ta’limdagi roli qanday? Talabalarni ijtimoiy mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllantiradi. Jamoa ishlash, tashabbuskorlik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, Real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali tajriba orttirishga yordam beradi. Metodologik yondashuvlarni tahlil qilamiz. Masalan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv orqali talabalarni kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarni o‘rgatish maqsadga muvofiq. Loyihaviy o‘qitish talabalarga real loyihalarni boshqarish va muammolarni hal qilish bo‘yicha tajriba o‘rgatadi. Faol ta’lim metodlari, interaktiv metodlar, guruh ishlari va rolli o‘yinlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga jalb etish orqali ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion metodlarni qo‘llash, masalan, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar talabalarning ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar doirasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni tushunish uchun asos bo‘ladi. Maqola ushbu mavzuni chuqurroq tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish uchun ushbu ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish mavzusi doirasida quyidagi namunalar orqali ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish metodlarini ko‘rib chiqish mumkin:

Ilmiy tadqiqotlar: Tadqiqot masalasi sifatida mahalliy ekologik muammolar va ularning aholi salomatligiga ta'siri mavzusini olishimiz mumkin. Qishloq hududlarida chiqindi boshqaruvi va suv ifloslanishi haqida ma'lumot yig‘ish vaziifasi beriladi. Tadqiqot usuli kvalitativ usullar (intervyular va so‘rovnomalar) va kvantitativ usullar (ma'lumotlar tahlili, statistik tahlillar) kabilarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich tahlil hududiy ekologik muammolarni aniqlash, eksperiment o‘tkazish, chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha tajriba o‘tkazish, ma’lumotlarni tahlilqilish, ekologik ta'sirni baholash va tavsiyalar ishlab chiqish bosqichlaridan iborat. Tadqiqot natijalarini va tavsiyalarni taqdim etish hisobot ko‘rinishida taqdim qilinadi. Masalan, chiqindi boshqaruvi va ekologik nazorat bo‘yicha tavsiyalar. Talabalarga ilmiy tadqiqotlarni o‘rgatish

uchun seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ekologik masalalarni hal qilish uchun talabalar bilan tajribalar o‘tkaziladi.

Ijtimoiy loyihalarga kam ta’minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish va ularning yashash sharoitlarini yaxshilash kabi mavzularni tanlashimiz mumkin. Oziq-ovqat, kiyim-kechak va ta’lim resurslarini taqdim etish faoliyatlarini olib boorish talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlanishiga asos bo‘ladi. Loyiha doirasida xayriya tadbirlari tashkil qilish va resurslarni yig‘ish, talabalar xayriya tadbirlarini tashkil etish, zarur vositalarni to‘plash va yordam ko‘rsatish amaliyotlari olib boriladi. Loyihaning samaradorligini baholash, yordam ko‘rsatilgan oilalarning yashash sharoitlarini tekshirish orqali baholanadi. Talabalarga ijtimoiy masalalarni hal qilish bo‘yicha seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Talabalar bilan birgalikda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish va ularni baholash mumkin.

Innovatsion yondashuvlar onlayn platformalarda ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar bo‘yicha kurslar tashkil etish kabi mashg’ulotlarni o‘z ichiga oladi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali talabalar bilan tajribalar o‘tkaziladi. Talabalarni innovatsion yechimlar topishga undash, masalan, loyiha asosida startaplar yaratishga rag’batlantiriladi. Innovatsion g‘oyalar asosida yangi ijtimoiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqish. Ushbu namunalar ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda talabalarni qanday o‘rgatish mumkinligini ko‘rsatadi va metodologik yondashuvlarni aniqlashda yordam beradi. Maqola ushbu misollar orqali talabalar uchun ilmiy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish borasida jahon tajribasi keng qamrovli va turli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Quyida jahonning turli mamlakatlarida ushbu sohada qo‘llaniladigan asosiy metodlar va tajribalar keltirilgan:

AQSHda kampusdagi tadqiqot markazlari faoliyato yo‘lga qo‘yilgan. Ko‘plab AQSH universitetlarida, masalan, MIT, Stanford, va Harvard kabi oliy ta'lim muassasalarida, talabalar uchun maxsus tadqiqot markazlari mavjud. Bu markazlar talabalarni ilmiy tadqiqotlar olib borishga jalb etadi va ularga kerakli resurslarni taqdim etadi. Tadqiqot loyiha dasturlari Undergraduate Research Opportunities Program (UROP)ni o‘z ichiga oladi. Talabalarga ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Ushbu dastur talabalar va professorlar orasida yaqin hamkorlikni rivojlantiradi. Innovatsion loyihalarni Stanford d.school misolida ko‘rishimiz mumkin. Dizayn fikrlash (design thinking) va innovatsion metodlarni o‘rgatadi. Bu talabalarni real muammolarni hal qilishda kreativ yechimlar topishga o‘rgatadi.

Yevropada Yevropa ittifoqi dasturlari, masalan, Erasmus+ Programlari faoliyat yuritadi. Talabalarga xalqaro miqyosda tajriba orttirish va turli davlatlarda ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish imkonini beradi. Bu dastur talabalar uchun xalqaro tajriba va hamkorlik imkoniyatlarini taqdim etadi. Talabalar ijtimoiy loyihalar orqali mahalliy jamoalar bilan ishlash imkoniyatiga ega. Bu loyihalar ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan. Leiden University (Niderlandiya)da Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda multidissipliner yondashuvni qo‘llaydi. Talabalar turli sohalar bo‘yicha tadqiqot olib borishlari mumkin.

Osiyoda Xitoy Pekin universitetida talabalarga ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etadi. Xitoy universitetlari ko‘pincha davlat tomonidan moliyalashtirilgan tadqiqot dasturlari va grantlar orqali talabalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Yaponiyaning Tokyo universiteti ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar uchun maxsus markazlar mavjud. Talabalar xalqaro ilmiy hamkorlik va innovatsion tadqiqotlarga jalb etiladi.

Avstraliyaning Melbourne universitetida Research Programs nomli ilmiy tadqiqot dasturlari va universitetlararo hamkorliklarni qo‘llab-quvvatlaydi. Talabalar uchun xalqaro tadqiqot loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlari mavjud. Community engagement programs asosida

talabalar ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etadi, jamoa bilan ishlash va real dunyo masalalarini hal qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Koreya Respublikasining Seul universitetida Innovation and Research Centersnomli ilmiy faoliyat mazkazlari ish yuritadi. Ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalar markazlari mavjud. Talabalar uchun ilmiy tadqiqot va startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar mavjud. Social responsibility programs asosida talabalar ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish va jamoatchilik loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Jahon tajribasi va yondashuvlari, tadqiqot markazlari, universitetlar o‘z ilmiy tadqiqot markazlari va laboratoriyalariga ega bo‘lib, talabalarni tadqiqot ishlariga jalb etadi. Xalqaro hamkorlik talabalarni xalqaro ilmiy va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga undash, xalqaro tajribani oshiradi. Innovatsion Yondashuvlar kreativ va innovatsion metodlarni o‘rgatish orqali talabalar real muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabalarga ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari taqdim etiladi. Ushbu jahon tajribasi orqali oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarga o‘rgatishning samarali usullari va metodologiyalari haqida yanada chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin.

O‘zbekiston ta'lim tizimida talabalarni ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarga o‘rgatishni jahon tajribalariga moslashtirish uchun quyidagi takliflar va metodologiyalarni ko‘rib chiqish mumkin. O‘zbekiston universitetlarida ilmiy tadqiqot markazlarini tashkil etish, talabalarga zamonaviy laboratoriyalar va resurslarni taqdim etish zarur. Toshkentdagi va boshqa yirik universitetlarda ilmiy markazlar ochish, talabalar uchun tadqiqot dasturlari va grantlar ajratish tavsiya etiladi**.** Ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha maxsus dasturlar va tanlovlar tashkil etish, talabalar uchun ilmiy tadqiqot va grant dasturlarini yaratish takliflari amalga oshirilishi kerak. Masalan, "O‘zbekiston talabalari ilmiy tadqiqot dasturi" yoki "O‘zbekiston yosh tadqiqotchilar grantlari" kabi dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Innovatsion loyihalar yaratish orqali talabalarni innovatsion tadqiqotlar va texnologik yechimlarga jalb etish, innovatsion markazlar va inkubatorlar tashkil etishlari mumkin. Innovatsion fikrlash va startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi markazlar yaratish, yosh tadqiqotchilar va startap loyihalariga yo‘naltirilgan tadbirlar o‘tkazish kerak.

Loyihalarni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish orqali talabalarga ijtimoiy loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha treninglar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish mashg’ulotlari olib boriladi. Talabalar uchun "Ijtimoiy Loyihalar Rejalashtirish Treningi" va "Amaliy Loyihalarni Boshqarish" kurslarini tashkil etish rejalashtiriladi. Talabalarni jamoada ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish uchun jamoaviy loyihalar tashkil etish lozim. "Jamoaviy yordam loyihalari" yoki "Mahalliy jamoa yordam dasturlari" kabi ijtimoiy loyihalar yaratish shular jumlasidandi. Talabalar uchun ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar va faoliyatlarni amalga oshirish, "Ijtimoiy mas'uliyat dasturlari" yoki "Mahalliy ijtimoiy loyihalar"ni amalga oshirish orqali talabalarni faol ijtimoiy ishtirokchiga aylantiradi. Talabalar uchun kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida kompetensiyaga asoslangan ta'lim metodlarini joriy etiladi. "Kompetensiya rivojlantirish kurslari" yoki "Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish" dasturlarini ishlab chiqiladi.

Talabalarga real loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish, tajriba orttirish uchun amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish. "Real loyihalar asosida ta'lim" dasturi orqali talabalarga real dunyo muammolarini hal qilish imkoniyatlarini taqdim etiladi. Interaktiv metodlar, guruh ishlari va rolli o‘yinlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga jalb etiladi. "Interaktiv ta'lim mashg‘ulotlari" yoki "Rolli o‘yinlar asosidagi ta'lim" metodlarini qo‘llash. Onlayn ta'lim platformalari va virtual laboratoriyalar orqali talabalar uchun ilmiy tadqiqotlar va loyihalarga kirishni osonlashtiriladi. "Virtual laboratoriyalar" yoki "Onlayn tadqiqot platformalari" yaratiladi.

XOLOSA

Talabalarni startaplar yaratishga undash va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan: "Startap inkubatorlari" yoki "Innovatsion g‘oyalar yaratuvchi dasturlar" tashkil etiladi. Ushbu takliflar O‘zbekiston ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar orqali talabalarni o‘rgatish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Jahon tajribalaridan foydalanib, mamlakatda yuqori sifatli va innovatsion ta'lim tizimini yaratish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarga o‘rgatish bugungi ta'lim tizimining muhim aspektidir. Bu jarayon talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishni ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar talabalarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar topish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy loyihalar esa talabalarni ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, jamoada ishlash va real dunyo masalalarini hal qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Jahon tajribasi, masalan, AQSH, Yevropa, Osiyo va Avstraliya kabi mamlakatlarda amalga oshirilayotgan metodologiyalar va dasturlar orqali talabalarni ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga rag'batlantirishning samarali usullari ko‘rsatilgan. O‘zbekiston ta'lim tizimida bu tajribalarni moslashtirish orqali ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalarga bo‘lgan qiziqishni oshirish, talabalarni yuqori sifatli ta'lim va amaliy tajriba bilan ta'minlash mumkin.

Ushbu maqola, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy loyihalar orqali talabalarni rivojlantirishda muhim metodologik yondashuvlar va amaliy usullarni o‘rganish, shuningdek, O‘zbekiston ta'lim tizimida ularni qanday joriy etish mumkinligini ko‘rsatib beradi. Ilmiy tadqiqot va ijtimoiy loyihalarga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash orqali talabalar nafaqat akademik, balki ijtimoiy va kasbiy jihatdan ham rivojlanadi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov, O. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2019. — 152 b.
2. Xolmatov, A. Talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash metodikasi. O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2020, №3, 45-50 b.
3. Tursunov, R. Ijtimoiy loyihalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni. — Samarqand: Ilm ziyo, 2021. — 98 b.
4. Nazarova, M. Jamoada ishlash va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’lim va taraqqiyot, 2018, №2, 23-27 b.
5. Asqarov, N. Talabalarni real hayotga tayyorlashda ijtimoiy loyihalarning o‘rni. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. — 165 b.
6. Boyle, A. Developing Professional Competencies in Higher Education. — London: Routledge, 2017. — 213 p.
7. Polat, E. Project-Based Learning in Modern Education. — Moscow: Prosveshchenie, 2019. — 256 p.
8. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
9. Beetham, H. Rethinking Pedagogy for a Digital Age. — New York: Routledge, 2005. — 270 p.
10. Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — New Jersey: Prentice Hall, 1984. — 256 p.